

BOLALARDA GEPATIT KASALLIGINING KECHISHI

Urunova Mashhura Allamurodovna

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Patologik anatomiya, seksion biopsiyasi
kafedrasi assistenti*

Mavlonova Dilrabo Nizom qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabasi

Annotasiya: *Oxirgi yillarda atipik pnevmoniya, parranda gripi kabi kasalliklarning paydo bo'lishi va ularning bolalar orasida ham uchrash ehtimoli yuqori ekanligi tibbiyot xodimlaridan katta ma'suliyat talab etadi. Bolalar orasida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri virusli gepatit hisoblanadi.*

Kalit so'z: *Zardob, vaksina, virusli gepatit, pikarnovirus, enterovirus, HbsAg, HbeAg, nekrotik, najas, RNK, DNK.*

Yuqumli kasalliklar inson paydo bo'lgan vaqtdan buyon, ularning hayotiga jiddiy xavf solib kelgan. Shu kungacha insoniyatga ma'lum bo'lgan yuqumli kasalliklarning deyarli barchasi chaqaloqlar, bog'cha va maktab yoshidagi bolalar orasida uchrashi ilmiy tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Hozirgi kunda ham bu kasalliklarning bolalar orasida kuzatilayotgani va nogironlik, o'lim ko'rsatkichlariga ta'siri yuqoriligicha qolmoqda.(1,4,5)

O'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, yuqumli kasalliklar tomonidan keltiriladigan talofatlarning keskin kamayishi tibbiyotning tez rivojlanishi antibiotiklarning topilishi, zardoblar va vaksinalarning, anatoksinlarning ishlab chiqilishi bilan bog'liqdir. Vaksina, anatoksin va immunoglobulinlar yordamida boshqarish imkoniyatiga erishilgan bo'lib, bunday kasalliklar yuqumli kasalliklarning bir qisminigina tashkil qiladi. Ammo boshqarish imkoni bo'lmayotgan shunday yuqumli kasalliklar borki, ular odamlar, ayniqsa bolalar hayotiga xavf solib kelmoqda. Yuqumli kasalliklar tibbiyotning hamma soxasida o'zining asoratlari va oqibatlari bilan namoyon bo'lib kelmoqda. Bir qator somatik kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishida asosiy sabablardan biri ekanligi hech kimga sir emas.(2,10,9)

Bolalarni yuqumli kasalliklarning biror bir turi bilan yiliga bir necha bor kasallanishi qayd etilgan. O'z navbatida bu kasalliklarini davolashda ishlatilayotgan dori vositalari va diagnostika uchun qo'llaniladigan reaktivlarining xorij davlatlaridan kirib kelishi tibbiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilib, respublikamizning iqtisodiga katta moddiy zarar keltirmoqda.(3,7,12)

Shuni alohida aytib o'tish lozimki, antibakterial dorilarning tartibsiz, ko'rsatmalarsiz ishlatilishi ko'pgina yuqumli kasalliklar klinik kechish davrlarini o'zgartirib, klinik, laborator tashxisotni qiyinlashtirib qo'ymoqda. Shu bilan birga qo'zg'atuvchilarning dori vositalariga bo'lgan sezgirligining kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Respublikamizda uchramaydigan yuqumli kasalliklarning xoriydan kirib kelishi va tarqalish extimoli borligi, har bir tibbiyot hodimining bu kasalliklarni chuqur mukammal o'rganishini, oldini olishni va doim tayyor turishini taqozo qiladi. Bolalar orasida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri virusli gepatit hisoblanadi.

Asosiy belgilari: jigar kattalashadi, teri va shilliq qavatlar sarg'ayadi, peshob qizaradi, najas oqaradi, jigar fermentlari faolligi ortadi, dispeptik, astenovegetativ, kataral va artralgiik belgilar bo'ladi. (5,8,12)

Virusli gepatitlar o'tkir yuqumli kasallik bo'lib o'zining davriy kechishi, zaxarlanish belgilarining namoyon bo'lishi, teri va shilliq qavatlarda sariqlik kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Etiologiyasi: xozirgi kunda virusli gepatit kasalligini chaqiruvchi bir qancha viruslar ajratilgan bo'lib ular A, V, S, D, E, F, G turlarga bo'linadi. Bizning xududimizda A, V, S, D turlari bolalar orasida kasallik keltirib chiqarishi isbotlangan. Ular tashqi muhitga chidamlidir. Faqat odamlarda kasalliklar keltirib chiqarishadi.

Gepatit A virusi tarkibida RNK saqlab, pikarnoviruslar oilasiga, enteroviruslar turiga kiradi. Ularning 4 ta markeri mavjud bo'lib, anti-NAV JgM diagnostik maqsadda ishlatiladi. Viruslar bemor organizmidan kasallik boshlanishida axlat va siydik orqali tashqi muhitga chiqariladi.(3,9,11)

Epidemiologiyasi: Kasallik manbai: Virusli gepatitlar uchun kasal odam ayniqsa kasallikning o'tkir, bilinar - bilinmas, sariqsiz, simptomlarsiz kechayotgan turi xavfli hisoblanadi.

Yuqish yo'li: Gepatit A va E najas - og'iz mexanizmi, maishiy muloqot yo'li orqali yuqadi. Sartaroshlar, manikyur, pedikyur qiluvchilar ham kasallik yuqishida muhim ahamiyatga ega. Parenteral yuquvchi gepatitlar transplatsentar yo'l orqali onadan xomilaga ham yuqadi. Jinsiy yo'l orqali yuqishi ham isbotlangan.

Moyillik: Gepatitlarga moyillik juda yuqori bo'lib A turi bilan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar onadan olgan immunitet xisobiga kasallanishmaydi. Asosan 2-7 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanib, bizning epidemiologik sharoitimizda deyarli hamma bolalar kasallikning u yoki bu shakli bilan og'rimoqda. Har 3-4 yilda kasallanish epidemiya ko'rinishida tarqalmoqda. Katta yoshdagilar gepatit A bilan kasallanishi juda kam uchraydi.

Mavsumiylik: Gepatit A ko'proq kuz-qish fasllarida uchraydi. E gepatiti yilning issiq fasllarida ko'proq tarqaladi.(1, 4,9)

Uy sharoitida davolash: Gepatit A ning yengil va o'rta og'irlikdagi shakllari uy sharoitida davolash mumkin.

Gepatit V – DNK saklovchi virus xisoblanadi. Sferik shaklda bo'lib diametri 42 nm keladi. qo'sh spirali tuzilishiga ega. Antigen yuzasida(HBsAg), oqsil kapsidichki qismida(HBsAg), DNK – polimeraza markeri(HBeAg). Ushbu antigenlar antitelolarni anti- Hbc, anti-Hbe, anti -Hbs antitelolar paydo bo'ladi.

Virusli gepatit V tasnifi. Klinik – morfologik turlari:

O'tkir siklik sariqlik formasi;

Sariksiz kechadigan turi;
Nekrotik(yomon sifatli. fulminantli. yashin tezligida)
Xolestatik;
Surunkali turi farq qilinadi.

Mana shu virus yuqgandan so'ng gepatatsitlarda nekroz va distrofik jarayonlar kuchayib, o'tkir gepatit rivojlanadi. Ayrim xollarda virus tashuvchanlik, buning natijasida surunkali virusli gepatit rivojlanishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qodirovich B. D. et al. VIRUSLI GEPATIT A NING OLDINI OLISH VA EPIDEMIOLOGIYASI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 33. – №. 1. – С. 94-97.
2. Usmonovna V. M., Qodirovich B. D. SCIENTIFIC ANALYSIS OF VIOLENT INFECTIOUS DISEASES AND THEIR CONTROL //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 149-153
- 3.Dustova G. K., Kurbanov A. A. SAMARQAND VILOYATI AHOLISI ORASIDA COVID-19 KASALLIGIDAN KEYINGI BEMORLARGA KUZATILGAN KASALLIKNING ASORATI VA KASALLIKLARNING O'ZIGA XOS KECHISH XUSUSIYATLARI //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 186-189.
- 4.Н.И. Кузнецов, Е.С. Романова, Г.Ю. Старцева. Современные принципы противовирусной терапии гепатита. Российский семейный врач. 2018. № 3.
- 5.Альмяшева Р.З., Архипова Л.В., Амплеева Н.П., Маркосьян Н.С., Павелкина В.Ф., Игнатъев В.Н. Побочные эффекты противовирусной терапии хронического вирусного гепатита. Медицинский альманах. 2012. № 3.
6. Лапасов С. Х. и др. Диагностика, лечение и профилактика инфекций мочевыводящих путей у беременных женщин с позиции доказательной медицины (обзор литературы) //Медицинское образование сегодня. – 2018. – №. 2. – С. 71-87
- 7.Лапасова М. Ш. и др. Внедрение принципов обучения здоровому образу жизни и по прекращению употребления табака среди больных с сердечно-сосудистой патологией //Здоровье, демография, экология финно-угорских народов. – 2018. – №. 4. – С. 19-20.
8. Lapasov S. K. et al. Результати оцінки якості діагностики і лікування хворих на цукровий діабет II-типу в умовах первинної ланки медико-санітарної допомоги //Здобутки клінічної і експериментальної медицини. – 2017. – №. 2.
9. Urunova M. A. ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 94-96.
10. Allamuradovna U. M. Clinical and Morphological Aspects of Hyperplastic Processes of the Larynx. – 2022.
11. Urunova M. A. ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 94-96.